



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **HOFIZ TANISH BUXORIY VA “ABDULLANOMA” ASARINING TARIXIY VA ILMIY AHAMIYATI**

**Po‘latova Mahliyo Zokirjon qizi**  
Farg‘ona davlat universiteti, magistrant

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola Hofiz Tanish Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati hamda uning mashhur “Abdullanoma” (“Sharafnomai Shohiy”) asarining tarixiy-manbaviy ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi olimning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan siyosiy va ma’naviy muhitni tahlil qilish, shuningdek “Abdullanoma” orqali Shayboniylar davri, xususan Abdullaxon II hukmronligi davridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni yoritishdan iborat. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy-tahliliy, manbashunoslik va xronologik metodlardan foydalanilgan. Asar matni zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari hamda mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari bilan solishtirilib tahlil qilindi. Natijada “Abdullanoma” XVI asr Movarounnahr tarixini o‘rganishda muhim va ishonchli manba ekani, unda Buxoro xonligining davlat boshqaruvi, tashqi siyosati, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy hayoti haqida tizimli ma’lumotlar mujassam ekani aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, muallif saroy tarixnavisligi an’alariga amal qilgan bo‘lsa-da, asar tanqidiy yondashuv asosida o‘rganilganda Shayboniylar davri tarixini tiklashda katta ilmiy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Hofiz Tanish Buxoriy, Abdullanoma, Sharafnomai Shohiy, Abdullaxon II, Shayboniylar davlati, Buxoro xonligi, XVI asr Markaziy Osiyo, tarixnavislik, saroy tarixchisi, tarixiy manba

## **ХАФИЗ ТАНИШ БУХАРИ И ИСТОРИЧЕСКОЕ И НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ «АБДУЛЛА-НАМА».**

**Пулатова Махлиё Зокиржон кизи**  
Ферганский государственный университет, магистрант

### **Аннотация**

В статье рассматриваются жизнь и научная деятельность Хафиз Таниш Бухари, а также историко-источниковедческое значение его знаменитого труда «Абдуллонома» («Шарафнама-и Шахи»). Основная цель исследования — анализ политической и духовной среды, повлиявшей на формирование ученого, а также освещение политических, социально-экономических и культурных процессов эпохи Шейбанидов, особенно периода правления Абдуллахан II. В работе использованы исторический, сравнительно-аналитический, источниковедческий и хронологический методы. Текст произведения сопоставлен с современными историографическими исследованиями и взглядами отечественных и зарубежных ученых. В результате установлено, что «Абдуллонома» является важным и достоверным источником по истории Мавераннахра XVI века, содержащим системные сведения о государственном управлении, внешней политике, социальной структуре и культурной жизни Бухарского ханства. Делается вывод, что, несмотря на следование традициям придворной историографии, труд имеет высокую научную ценность при его критическом анализе.

**Ключевые слова:** Хафиз Таниш Бухари, Абдуллонома, Шарафнама-и Шахи, Абдуллахан II, государство Шейбанидов, Бухарское ханство, Центральная Азия XVI века, историография, придворный историк, исторический источник.

## **HAFIZ TANISH BUKHARI AND THE HISTORICAL AND SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF THE WORK "ABDULLA-NOMA"**

**Po‘latova Mahliyo Zokirjon qizi**  
Fergana State University, Master’s student

### **Abstract**

The article examines the life and scholarly activity of Hafiz Tanish Bukhari, as well as the historical and source-based significance of his well-known work “Abdullanoma” (“Sharafnama-i Shahi”). The main objective is to analyze the political and spiritual environment that influenced his formation and to explore the political, socio-economic, and cultural processes of the Shaybanid period, particularly during the reign of Abdullah Khan II. The study employs historical, comparative-analytical, source-critical, and

chronological methods. The text is analyzed in comparison with modern historiographical research and the views of local and foreign scholars. The findings confirm that “Abdullanoma” is a significant and reliable source for studying 16th-century Mawarannahr, containing systematic information on governance, foreign policy, social structure, and cultural life of the Bukhara Khanate. In conclusion, although the author followed the traditions of court historiography, the work holds substantial scholarly value when examined critically.

**Keywords:** Hafiz Tanish Bukhari, Abdullanoma, Sharafnama-i Shahi, Abdullah Khan II, Shaybanid state, Bukhara Khanate, 16th-century Central Asia, historiography, court historian, historical source

**Hofiz Tanish Buxoriy hayoti va ma’naviy muhiti.** Hofiz Tanish Buxoriy (to’liq ismi Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy) XVI asrda yashagan tarixiy shaxs bo’lib, u taxminan 1540-yillar atrofida Buxoro shahrida tug’ilgan. U Shayboniylar davlati hukmronlik qilgan davrda, Buxoroning siyosiy va madaniy hayoti rivojlangan muhitida voyaga yetgan. Uning tug’ilgan yili aniq hujjatlar bilan qayd etilmagan, ammo manbalarda XVI asrning birinchi yarmi oxiri ko’rsatiladi.

Hofiz Tanish Buxoriyning oilasi nufuzli va obro’li oilalardan biri bo’lgan. Otasi Mir Muhammad Buxoriy Buxoro xonligi saroyiga yaqin, siyosiy hayotda faol ishtirok etgan shaxs sifatida tilga olinadi. Ayrim manbalarda u Shayboniy hukmdori Ubaydullaxon davrida saroyga yaqin kishilardan bo’lgani qayd etiladi. Shu sababli Hofiz Tanish yoshligidan yaxshi sharoitda tarbiya topgan, ilm olish imkoniga ega bo’lgan. U Buxoro madrasalarida ta’lim olgan, diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallagan. Buxoro o’sha davrda Markaziy Osiyodagi eng yirik ilm markazlaridan biri bo’lgani uchun Hofiz Tanish shu ilmiy muhitda shakllangan. Uning oilaviy kelib chiqishi va olgan ta’limi keyinchalik saroy muhitida xizmat qilishiga zamin yaratgan. Hofiz Tanish yoshligidan she’riyat va tarixga qiziqqan bo’lib, “Mavlono Naxliy” taxallusi bilan ijod qilgan. U saroyga Qulbobo Ko’kaldoshning tavsiyasi bilan 1570-yilda kirib, Abdullaxon II ning shaxsiy voqeanavisi va tarixchisi vazifasiga tayinlangan hamda umrining oxirigacha shu lavozimda xizmat qilgan. Bu lavozim Hofiz Tanishga siyosiy voqealarni birinchi qo’ldan kuzatish imkonini bergan, shuningdek, hukmdorning qarorlari, tashqi siyosat va ichki islohotlar haqidagi ma’lumotlarni o’z vaqtida yozib borishga sharoit yaratgan. Bu jihat uni oddiy tarixchidan farqli o’laroq, saroy ichidagi voqealar guvohiga aylantirgan.

**Abdullanoma.** Hofiz Tanish Buxoriy o’zining shoh kitobi — “Abdullanoma” asari bilan tanilgan bo’lib, bu asar “Sharafnomayi shohiy” deb ham ataladi. U 1584–1588-yillarda Buxoroda fors tilida yozilgan, Shayboniylar sulolasining yirik vakili, Buxoro xoni Abdullaxon II (1534–1598) hukmronligi davriga bag’ishlangan tarixiy-biografik asardir. Muallifning rejasiga ko’ra, asar muqaddima, ikki qism va xotimadan iborat bo’lishi mo’ljallangan. Biroq asarni yozish jarayonida reja o’zgargan. Birinchi va ikkinchi qismlar qo’shib yozilgan, xotima esa muallifning vafoti tufayli yozilmay qolgan. Mutribiyning guvohlik berishicha, “Abdullanoma” asarining oxirgi qismini Abdullaxon II ning topshirig’i bilan qozi Poyanda Zominiy 1602-yilda yozgan. “Abdullanoma” asari sharqshunos olim Sodiq Mirzayev tomonidan o’zbek tiliga to’liq tarjima qilingan. Bu asar B. Ahmedov so’zboshisi va izohlari bilan birgalikda ikkinchi marta nashr etilgan. Asarning rus tilidagi tarjimasi M. Salohiddinova tomonidan amalga oshirilib, uning faqat I–II qismlari faksimilesi bilan chiqarilgan. Asarning qo’lyozma nusxalari O’zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanadi. Sankt-Peterburgda asarning uchta qo’lyozmasi mavjud.

Bugungi tarixshunoslikda “Abdullanoma” asari Markaziy Osiyo tarixining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Bir necha tarixshunoslar, jumladan, Yuriy Bregel, bu asarni Shayboniylar davri tarixshunosligidagi eng muhim asarlardan biri deb baholagan. Asarda Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining ichki siyosati, boshqaruv mexanizmlari, davlat boshqaruvi va tashqi diplomatiyasi haqida murakkab tizimli ma’lumotlar mavjud. Bu jihat, ayniqsa, Buxoro xonligi bilan Eron, Hindiston va Rossiya o’rtasidagi munosabatlarni tahlil etishda juda qimmatli.

“Abdullanoma” asari ijtimoiy tuzilma, jamiyat qatlamlari, shuningdek, savdo va iqtisodiy aloqalar haqida ham bevosita ma’lumot beradi. Ba’zi manbalar asarda ijtimoiy hayotning turli segmentlari — mulk egalari, savdogarlar, madaniy elita haqida ham aniq faktlar borligini qayd etadi. “Abdullanoma” nafaqat adabiy-tarixiy asar, balki rasmiy saroy tarixnavisligi namunasi sifatida ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. O’sha davr tarixshunosligiga xos ravishda tantanavor va maqtov ruhida bayon qilingan bo’lsa-da, undagi ko’plab ma’lumotlar aniq tarixiy faktlarga tayangan.

“Abdullanoma” tuzilish jihatidan xronologik ketma-ketlikka asoslangan bo’lib, unda voqealar yilma-yil, ba’zan oyma-oy bayon qilinadi. Asarning dastlabki qismida Abdullaxon II ning kelib chiqishi,

uning yoshligi, siyosiy tarbiyasi va hokimiyat sari ilk qadamlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Shayboniyar davlatidagi siyosiy parokandalik, ichki nizolar, taxt uchun olib borilgan keskin kurashlar batafsil bayon etiladi. Muallif Abdullaxonning nasl-nasabini, otasi Iskandarxon faoliyatini, Buxoro va Samarqand atrofidagi siyosiy vaziyatni, shuningdek, boshqa shayboniy sultonlar o'rtasidagi raqobatni tarixiy izchillikda yoritadi. Bu qismda Abdullaxon II ning siyosiy jihatdan shakllanishi, uning hokimiyatga da'vogarlik yo'lidagi dastlabki harakatlari va tajriba orttirish jarayoni muhim o'rin tutadi. Birinchi qism, asosan, Abdullaxon hokimiyatining tarixiy zaminini ochib berishga xizmat qiladi.

Asarning ikkinchi qismi Abdullaxon II ning to'liq hukmronlik davriga bag'ishlangan bo'lib, unda markazlashgan Buxoro xonligining shakllanishi va mustahkamlanishi keng yoritiladi. Bu qismda Abdullaxonning ichki va tashqi siyosati, harbiy yurishlari, Balx va Xuroson uchun olib borilgan kurashlar, qo'shni davlatlar bilan munosabatlari batafsil tasvirlanadi. Samarqand, Toshkent, Balx, Hisor va Farg'ona hududlarining Buxoro xonligi tasarrufiga o'tkazilishi aniq joy nomlari va tarixiy shaxslar bilan bayon qilinadi. Muallif xonning davlat boshqaruvidagi islohotlarini, markaziy hokimiyatni kuchaytirish yo'lidagi sa'y-harakatlarini, amaldorlar tizimi va soliq siyosatini ham bayon qiladi. Shuningdek, iqtisodiy hayot, savdo yo'llari, shaharlarning ahvoli, diniy-ma'rifiy muhit va madaniy hayot masalalariga ham e'tibor qaratiladi.

“Abdullanoma”da tashqi siyosat masalalari ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Rossiya davlati (bu ma'lumot rus arxiv hujjatlari bilan tasdiqlangan), Eron (Safaviylar), Hindiston (Boburiylar) bilan bo'lgan diplomatik va savdo aloqalari haqida ma'lumotlar beriladi. Abdullaxon II ning Rossiya bilan elchilik munosabatlari o'rnatgani, savdo yo'llarini rivojlantirishga intilgani qayd etiladi. Bu holat Movarounnahrning XVI asrda xalqaro siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etganini ko'rsatadi.

“Sharafnomayi shohiy”da o'zbek xonlari va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarga oid ayrim qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Bunda turk sultoni Sulaymon I bilan o'zbek xoni Navro'z Ahmad (Baroqxon) o'rtasida Eron shohi Tahmosp I ga qarshi ittifoq tuzilganligi va ular Safaviylar Eroniga qarshi birgalikda kurash olib borishga ahd qilganliklari aytilgan. Turkiya 1551–1557-yillarda Shayboniylarning ichki kurashlariga ham faol aralashdi. Turk askarlari bu kurashda Navro'z Ahmadxon tarafida bo'ldilar. Bu haqda turk manbalarining birida ishonchli ma'lumotlar keltirilgan: XVI asrning birinchi choragida Toshkentda Navro'z Ahmad (Baroqxon) huzurida 300 turk askari xizmat qilganligi, turklar o'zbek sultonlarini miltiq va o'q-dori bilan ham ta'minlab turganligi aytilgan. Ana shu turk askarlari Baroqxon va uning o'g'illari, xususan, Bobo Sulton tarafida turib, Nasaf yonida Abdullaxonga qarshi janglarda qatnashdilar. Turkiya hukumati Safaviylar bilan bo'lgan urushlarda o'zbek xonlarining kuchidan foydalanish uchungina emas, balki Movarounnahrda Turkiyaning siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ham bu ichki kurashlarda faol qatnashdi.

“Sharafnomayi shohiy”da bu kurashda Mo'g'uliston xonlari ham ishtirok etganliklari ko'rsatib o'tilgan. Ular Navro'z Ahmad (Baroqxon), uning o'g'illari va Abdullaxonga qarshi bo'lgan boshqa o'zbek sultonlarini (Sulton Sa'id, Gadoy Sulton va boshqalar) qo'llab turdilar. Masalan, mo'g'ul xoni Rashidxon 1556-yili Sulton Sa'idni qurollantirib, katta qo'shin bilan Abdullaxonga qarshi otlantirdi va o'sha yilning kuzida Samarqandni egalladi. Rashidxon bu bilan Movarounnahrda o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlamoqchi bo'lgan, albatta.

Asarning yana bir muhim jihati shundaki, unda iqtisodiy va ijtimoiy hayotga oid ma'lumotlar ham keltirilgan. Unda sug'orish tizimlarini yaxshilash, kanallar qazish, dehqonchilik va hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tasvirlanadi. Bu ma'lumotlar Abdullaxon II davrida davlat iqtisodiy jihatdan mustahkamlanganini ko'rsatadi. Shuningdek, “Abdullanoma”da madaniy va diniy hayot masalalari keng yoritilgan. Abdullaxon II tomonidan masjid, madrasa, xonaqoh va boshqa inshootlar qurdirilgani, ilm-fan va ulamolarga homiylik qilingani qayd etiladi. Buxorodagi Abdullaxon madrasasi ana shu tarixiy ma'lumotlarning moddiy dalilidir.

Asarning yakuniy qismida Abdullaxon II ning shaxsiy fazilatlarini, adolatparvarligi, davlatni boshqarishdagi siyosiy donoligi madh etiladi. Bu qismda muallif an'anaviy saroy tarixchiligiga xos ravishda hukmdorni ideallashtiradi, biroq shu bilan birga tarixiy voqealarning umumiy manzarasini buzmaydi.

“Abdullanoma”ning ilmiy ahamiyati shundaki, u faqatgina Abdullaxon II shaxsini madh etish bilangina cheklanmay, balki XVI asr Markaziy Osiyosining murakkab siyosiy manzarasini real tarixiy faktlar asosida yoritadi. Asarda voqealar xronologik tartibda, aniq shaxslar va joy nomlari bilan berilgan bo'lib, bu uni tarixchilar uchun qimmatli manbaga aylantiradi. Shu bilan birga, saroy tarixnavisligiga xos tarzda Abdullaxon faoliyatini ideallashtirish holatlari ham uchraydi, bu esa asarni tanqidiy tahlil qilish

zaruratini tugʻdiradi.

**“Abdullanoma” asarining oʻrganilishi va tarixshunoslikda tutgan oʻrni.** Asarning oʻrganilishi bir necha bosqichda amalga oshirilgan. Dastlab XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus va Yevropa sharqshunoslari tomonidan qoʻlyozmalar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Keyinchalik Sovet davrida manba tanqidiy-tarixiy metod asosida tahlil qilinib, undagi maʼlumotlar boshqa tarixiy manbalar bilan solishtirilgan holda oʻrganildi. Mustaqillik davrida esa Oʻzbekiston tarixchilari tomonidan asarga milliy davlatchilik va tarixiy xotira nuqtayi nazaridan yangicha baho berilmoqda, uning toʻliq va izohli tarjimalari hamda ilmiy nashrlari tayyorlanmoqda. Bu jarayon “Abdullanoma”ning ilmiy ahamiyatini yanada oshirdi va uni zamonaviy tarixshunoslikning asosiy manbalaridan biriga aylantirdi.

Manbaning ishonchliligi va ilmiy qiymati uning qoʻlyozma nusxalari bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlarida asarning bir necha nusxalari saqlanadi, shuningdek, Sankt-Peterburgdagi sharq qoʻlyozmalari toʻplamlarida ham variantlari mavjud. Ushbu qoʻlyozmalar asosida tekstologik tadqiqotlar olib borilib, matnning aniqligi va tarixiy haqiqatga mosligi tekshiriladi. Bu esa “Abdullanoma”ni nafaqat mazmunan, balki manbashunoslik jihatidan ham ishonchli manba sifatida eʼtirof etishga imkon beradi.

Hozirgi kunda “Abdullanoma”ning oʻrni nihoyatda muhim boʻlib, u tarixshunoslik, manbashunoslik va sharqshunoslik sohalarida asosiy tayanch manbalardan biri sifatida keng qoʻllanilmoqda. Oliy taʼlim muassasalarida Oʻrta Osiyo tarixi kurslarida ushbu asar asosiy darslik va qoʻshimcha manba sifatida oʻrganiladi. Ilmiy tadqiqotlarda esa u XVI asr siyosiy va ijtimoiy jarayonlarini tiklashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy davlatchilik tarixini chuqur anglash va tarixiy xotirani shakllantirishda uning roli beqiyosdir.

**Xulosa.** Hofiz Tanish Buxoriy XVI asr Markaziy Osiyo tarixshunosligining yirik namoyandalaridan biri boʻlib, uning “Abdullanoma” asari Shayboniylar davri tarixini oʻrganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Asar Abdullaxon II shaxsiyati va faoliyatini yoritish bilan birga, Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy holati, madaniy va diniy hayoti haqida keng va tizimli maʼlumot beradi. Voqealarning xronologik ketma-ketlikda, aniq shaxslar va joy nomlari bilan bayon etilishi “Abdullanoma”ning tarixiy ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, saroy tarixnavisligiga xos ravishda hukmdor shaxsining ideallashtirilgani asarni tanqidiy yondashuv asosida oʻrganish zaruratini koʻrsatadi. Umuman olganda, “Abdullanoma” XVI asr Movarounnahr siyosiy va madaniy tarixini tiklashda bebaho ilmiy ahamiyatga ega boʻlib, bugungi kunda ham tarixshunoslik, manbashunoslik va Markaziy Osiyo tarixini oʻrganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomai shohiy). – Toshkent: Fan, tarjima va izohlar bilan nashr.
2. Ahmedov B. Oʻzbek ulusining tarixi. – Toshkent: Fan.
3. Bartold V. V. Turkiston moʻgʻullar davrida. – Toshkent.
4. Bregel Yu. An Historical Atlas of Central Asia. – Leiden–New York.
5. Mukminova R. XVI asr Movarounnahr tarixiga doir tadqiqotlar. – Toshkent.
6. Mirzayev S. (tarj.). Abdullanoma. – Toshkent.
7. Salohiddinova M. Abdullanoma ruscha tarjimasini va faksimilesi. – Moskva.
8. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondi materiallari.